

## YOSHLAR ORASIDA HUQUQIY ONGNI OSHIRISHDA MEDIA VOSITALARINING TA'SIRI

**Husenova Sevinch Ilhom qizi**

*Kogon shahar 7-umumiy orta talim maktabi o'qituvchisi*

*E-mail: husenovasevinch9@gmail.com*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mafistranti*

**Ilmiy rahbar: Sattorova Shalola**

*f.f.f.d (PhD), Buxoro davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirish jarayonida media vositalarining o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning huquqiy savodxonligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi solishtirildi, sotsiologik so'rovlar asosida yoshlarning huquqiy axborotni qabul qilish xususiyatlari o'rganildi. Maqolada media vositalari orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, huquqiy ong, media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, huquqiy madaniyat, axborot texnologiyalari, huquqiy tarbiya, fuqarolik ong, huquqiy axborot.

**Аннотация.** В данной статье анализируются роль и влияние средств массовой информации в процессе формирования правового сознания среди молодежи. Современные информационные технологии, особенно социальные сети, рассматриваются как один из основных факторов, влияющих на правовую грамотность молодежи. В ходе исследования был проведен сравнительный анализ опыта Узбекистана и зарубежных стран, а также изучены особенности восприятия правовой информации молодежью на основе социологических опросов. В статье также представлены практические рекомендации по повышению правовой культуры через медиа-средства.

**Ключевые слова:** молодежь, правовое сознание, средства массовой информации, социальные сети, правовая культура, информационные технологии, правовое воспитание, гражданское сознание, правовая информация.

**Annotation.** This article analyzes the role and impact of media tools in the process of shaping legal awareness among youth. Modern information technologies, especially social networks, are considered one of the main factors influencing the legal literacy of young people. During the research, the experiences of Uzbekistan and foreign countries were compared, and the characteristics of youth's reception of legal information were



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

*studied based on sociological surveys. The article also provides practical recommendations for enhancing legal culture through media tools.*

**Keywords:** youth, legal awareness, media tools, social networks, legal culture, information technologies, legal education, civic awareness, legal information.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning barcha qatlamlari, xususan yoshlar axborot muhitiga bevosita bog'liq holda shakllanmoqda. Yosh avlod hayoti va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri — bu media vositalaridir. Axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi natijasida yoshlar har kuni katta hajmdagi axborot oqimi bilan yuzma-yuz kelishmoqda. Bu holat ularning ijtimoiy fikri, axloqiy qadriyatlari, siyosiy qarashlari bilan bir qatorda huquqiy ongiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda.

Huquqiy ong — bu fuqaroning huquqiy bilim, tushuncha, e'tiqod va amaliy ko'nikmalari yig'indisi bo'lib, u shaxsning jamiyatdagi huquqiy munosabatlarda ongli ishtirokini ta'minlaydi. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirish jamiyatda qonuniylik, adolat va tartibni ta'minlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagい PF-6034-son Farmonida ham yoshlar o'rtaida huquqiy madaniyatni oshirish, ularni huquqiy savodli shaxslar sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, media vositalarini huquqiy targ'ibotda faol qo'llash zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayni paytda yoshlar asosan raqamli platformalar — Telegram, YouTube, TikTok, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy axborotlarni qabul qilmoqda. Bu esa huquqiy tarbiyada an'anaviy vositalar bilan bir qatorda zamonaviy media texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yanada oshiradi. Shu bilan birga, media maydonidagi axborotlarning ishonchliligi, sifat darajasi va ularning ta'sirchanligi masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda [1].

Ushbu ilmiy ishda yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirishda media vositalarining o'rni, ularning ijtiboyi va salbiy jihatlari, amaliy ta'sir darajasi hamda ushbu jarayondagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot asosida media orqali huquqiy tarbiyani yanada samarali yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi [2].

**Media vositalari – huquqiy tarbiyaning zamonaviy platformasi.** Televizion dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlar, bloglar va podkastlar – bularning barchasi huquqiy ma'lumotlarni ommaga yetkazishning samarali yo'llaridandir. Yoshlar ko'pincha aynan shu manbalar orqali yangiliklar bilan tanishadi, qonunlar va ularning amaliy qo'llanilishi haqida bilib olishadi. Shu bois, media vositalari orqali huquqiy madaniyatni shakllantirish jamiyatda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning asosiy axborot manbasi hisoblanadi. Telegram, Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalarda huquqiy mavzularga oid

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qisqa videolar, infografikalar, jonli efirlar orqali foydali ma'lumotlar berilishi yoshlar ongini yuksaltiradi. Masalan, "Huquqiy axborot" kanalida qonunchilikdagi yangiliklar, hayotiy misollar asosida berilgan sharhlar keng auditoriyani qamrab oladi

Media vositalari nafaqat huquqiy bilim berish, balki yoshlarni turli xavf-xatarlardan ogohlantirish vositasi ham hisoblanadi. Maxsus reportajlar, huquqiy seriallar yoki sud jarayonlarining ochiq yoritilishi yoshlar ongida muayyan tushunchalarni shakllantiradi: jinoyat sodir etish oqibatlari, qonun oldida javobgarlik, fuqarolik burchlari va h.k. Shunga qaramay, ba'zi hollarda internetdagи noto'g'ri yoki yolg'on huquqiy ma'lumotlar yoshlar orasida chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois rasmiy va ishonchli axborot manbalariga ustuvorlik berilishi muhim. Ta'lim muassasalari, davlat organlari va nodavlat tashkilotlari birgalikda huquqiy kontent yaratishni yo'lga qo'yishlari kerak.

**Adabiyotlar tahlili.** Huquqiy ong jamiyatda huquqiy munosabatlar tizimini tushunish, qonunlarga hurmat bilan qarash va ularni amalda qo'llash madaniyati sifatida qaraladi. Yosh avlod ongida bu tushunchani shakllantirishda media vositalari kuchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda bu mavzu nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham keng o'rganilmoqda. Huquqshunos olim A.S. Saidov o'zining "Huquqiy madaniyat asoslari" (Toshkent, 2016) asarida huquqiy ongni insonning huquqiy bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, huquqiy madaniyat faqat bilimlar emas, balki ongli ravishda qonunga rioya qilishga bo'lgan ichki ehtiyojni ham o'z ichiga oladi. Saidov ta'kidlaganidek, huquqiy ongni rivojlantirishda an'anaviy vositalar (ta'lim, oilaviy tarbiya) yetakchi o'rin tutsa-da, zamonaviy davrda media axborot vositalari bu jarayonning ajralmas qismlariga aylangan [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan "Axborot maydonida yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar" (2021) tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqotda shunday xulosa qilinadi:

"Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar huquqiy axborotga oson kirishmoqda, biroq bu axborotlarning sifati va ishonchlilagini ta'minlash muhim vazifadir." Ushbu tahlilga ko'ra, Telegram va YouTube singari platformalarda huquqiy kontentning ommaviylashuvi yoshlar huquqiy ongini oshirgan, biroq noto'g'ri axborotlar xavfi ham ortgan. UNESCO tomonidan 2020 yilda chop etilgan "Media and Information Literacy for Youth" (Parij, 2020) nomli hisobotda yoshlarni axborotdan ongli foydalanishga o'rgatish, ayniqsa huquqiy savodxonlik sohasida, asosiy strategiyalardan biri sifatida qayd etiladi. Unda aytishicha:

"Yoshlar uchun ommaviy axborot vositalarida huquqiy kontentni qulay, tushunarli va interaktiv tarzda taqdim etish ularning fuqarolik ongini oshiradi."

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bu yondashuv O‘zbekiston tajribasida ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, Adliya vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar tomonidan tayyorlanayotgan videoroliklar, internet loyihalar yoshlar orasida muhim rol o‘ynayapti

Ba’zi mualliflar, jumladan, S.N. Raxmonov (2022, “Yoshlar va media: xavf va imkoniyatlar”), media vositalarini huquqiy ongni oshirishda ijobiy vosita deb hisoblash bilan birga, ularning salbiy ta’sirini ham ta’kidlaydi. Uning fikricha, tahlilsiz, emotsiyal tarzda beriladigan kontent yoshlar ongida noto‘g‘ri huquqiy tasavvurlar shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, A. Jalilovning “Yoshlar va huquqiy tarbiya” (2020) maqolasida ham shunga o‘xhash fikr ilgari suriladi. Muallif media orqali huquqiy madaniyatni singdirishda tizimli yondashuv va pedagogik metodikalar zarurligini ta’kidlaydi. Yuqoridaq adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, yoshlar orasida huquqiy ongni oshirishda media vositalari muhim o‘rin tutadi [6]. Shu bilan birga, bu sohada ma’lumotlarning aniqligi, ishonchliligi va yoshlar psixologiyasiga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro va milliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy axborot platformalaridan foydalanish huquqiy tarbiyada salmoqli natijalar berishi mumkin, biroq bu jarayon nazorat va metodik yondashuvni talab qiladi.

**Tadqiqot muhokamasi.** Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy media vositalari yoshlar ongini shakllantirishda kuchli axborot manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlar huquqiy mavzulardagi kontentga nisbatan katta qiziqish bildirayotgani kuzatildi. So‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, respondentlarning 68 foizi huquqiy ma’lumotlarni aynan Telegram va YouTube kabi platformalar orqali qabul qilishini bildirgan. Bu holat yoshlar orasida an’naviy huquqiy targ‘ibot usullari (maktab yoki universitetdagi ma’ruzalar, broshyuralar)dan ko‘ra interaktiv va tezkor axborot vositalarining ustunlik kasb etayotganini ko‘rsatadi. Media kontentlar, ayniqsa video va grafik asosidagi huquqiy materiallar, yosh auditoriyada huquqiy bilimlarni yengil va tushunarli qabul qilish imkonini yaratmoqda [7].

Shu bilan birga, tadqiqot davomida muayyan muammolar ham aniqlangan. Jumladan:

- Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan huquqiy axborotlarning aksariyati mutaxassislar tomonidan tayyorlanmagan, bu esa noto‘g‘ri tushunchalar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.
- Ayrim platformalarda huquqiy kontent yetarli darajada yo‘q yoki sifatsiz, norasmiy manbalar hukmron.
- Yoshlarning huquqiy ong darajasi hududiy, ijtimoiy va ta’limiy farqlarga ko‘ra sezilarli darajada turlicha.

Tadqiqot natijalari ilgari chop etilgan ilmiy ishlar bilan ham uyg‘unlikda bo‘ldi. Masalan, A. Jalilov (2020) o‘z tadqiqotida yoshlar bilan ishslashda zamonaviy kommunikatsion yondashuvlar zarurligini ta’kidlagan. UNESCO (2020) esa yoshlarni raqamli axborot muhitida tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, shu jumladan huquqiy

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

savodxonlikni oshirishni global muammo sifatida ko'rsatgan. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, O'zbekiston sharoitida huquqiy ongi oshirish borasida davlat muassasalari tomonidan yuritilayotgan media kampaniyalar ijobiy samara bermoqda, ammo ularning hajmi va auditoriya qamrovi hanuz to'liq emas. Shu sababli, davlat va nodavlat media loyihalarini birlashtirgan kompleks strategiyalar zarur.

**Xulosa.** XXI asrda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi yoshlar hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ularning huquqiy ongi shakllanishiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, media vositalari – xususan, ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari, elektron OAV va video platformalar – huquqiy ma'lumotlarni tez va ommaviy yetkazish vositasi sifatida samarali ishlayotgani aniqlandi.

Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishda media vositalari orqali ta'sir ko'rsatish quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo'lmoqda:

- huquqiy axborotlar qulay, tez va vizual shaklda taqdim etilayotgani;
- interaktiv muloqot imkoniyatlari (izohlar, jonli efirlar, savol-javoblar) huquqiy masalalarga qiziqishni oshirayotgani;
- qonunbuzarlikning oqibatlarini ko'rsatishga qaratilgan kontentlar yoshlarni ogohlilikka chaqirayotgani.

Media vositalari yoshlar huquqiy ongini shakllantirishda kuchli ijtimoiy vosita sifatida harakat qilmoqda. Bu imkoniyatdan oqilona va tizimli foydalanish jamiyatda qonuniylik,adolat va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.S. Saidov. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent: Adolat, 2016.
2. S.N. Raxmonov. Yoshlar va media: xavf va imkoniyatlar. – Toshkent, 2022.
3. A. Jalilov. "Yoshlar va huquqiy tarbiya" // Ijtimoiy fanlar jurnali, 2020.
4. UNESCO. Media and Information Literacy for Youth. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
5. Davlat boshqaruvi akademiyasi. Axborot maydonida yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. – Toshkent, 2021.
6. Karimov, N. (2023). "O'zbekiston yoshlarining media savodxonligi darajasi va huquqiy ong: zamonaviy yondashuvlar" // O'zMU Ilmiy axborotnomasi, №4.
7. Qodirov, B. (2018). Huquqiy madaniyatni shakllantirishda ta'limning o'rni. – Toshkent: "Ilm ziyo".